

**CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING
TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION
METOD VA VOSITALAR**

Mirzakarimova Maxliyoxon Madaminjonovna

Andijon davlat chet tillari instituti

Gmail: maxliyo82uz@gmail.com

tel: +998(90)543-32-55

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili darslarida o‘quvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog‘liq ta‘limning ko‘plab edukologik imkoniyatlari, masalan, ta‘lim oluvchilarni mashg‘ulotlarga jalb qilish, motivatsiya, ta‘lim oluvchilarda o‘ziga ishonch hissini uyg‘otish masalalari muhokama qilindi, shu bilan birga unda ma‘lum darajada ish joylarini yaratishga ta‘sir ko‘rsatadigan omillar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik qadriyati, tadbirkorlik madaniyati, tadbirkorlik ko‘nikmasi, CLIL texnologiyasi, effektivlik konsepsiyasi, integrativ ta‘lim, ijodkorlik, innovatsion g‘oya, texnologiya, mustaqil fikr, tadbirkorlik, individuallik, fikrlash texnologiyasi.

**ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ И СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ
CLIL-ТЕХНОЛОГИЙ**

Мирзакаримова Махлиёхон Мадаминжоновна

Андижанский государственный институт иностранных языков

Gmail: maxliyo82uz@gmail.com

телефон: +998(90)543-32-55

Аннотация: В данной статье обсуждались многие воспитательные возможности образования, связанные с совершенствованием механизмов развития предпринимательских способностей учащихся на занятиях по английскому языку, например, вовлечение учащихся в деятельность, вопросы мотивации, уверенности

в себе учащихся, сенсibilизации, в то же время в некоторой степени обсуждались факторы, влияющие на создание рабочих мест.

Ключевые слова: предпринимательская ценность, предпринимательская культура, предпринимательские навыки, технология CLIL, концепция эффективности, интегративное образование, креативность, инновационная идея, технология, независимое мышление, предпринимательство, индивидуальность, технология мышления.

INNOVATIVE METHODS AND TOOLS FOR DEVELOPING STUDENTS' ENTREPRENEURIAL SKILLS THROUGH CLIL TECHNOLOGIES

Mirzakarimova Makhliyokhon Madaminjonovna

Andijan State Institute of Foreign Languages

Gmail: maxliyo82uz@gmail.com

phone: +998(90)543-32-55

Abstract: In this article, many educational possibilities of education related to the improvement of the mechanisms of development of entrepreneurial skills of students in English language classes, for example, the involvement of learners in activities, motivation, self-confidence of learners sensitization issues were discussed, while at the same time, factors affecting job creation were discussed to some extent.

Key words: entrepreneurial value, entrepreneurial culture, entrepreneurial skills, CLIL technology, effectiveness concept, integrative education, creativity, innovative idea, technology, independent thought, entrepreneurship, individuality, thinking technology.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'quvchilarni ilimga, hunarga bo'lgan intilishlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, o'quv jarayonida ijodiy

fikrlashni ragʻbatlantirish, oʻquvchilarda yangi fikr va qarashlarni ishlab chiqishga yoʻnaltirish maqsadida ingliz tili darslarida oʻquvchilarning tadbirkorlik koʻnikmalarini rivojlantirishda evristik usullarni qoʻllash oʻquvchi-yoshlarda tadbirkorlik sifatlarini shakllantirishni kafolatlaydi.

ADABIYOTLARNING TAHLILI

Taʼlimning boshlangʻich va oʻrta darajalarida tashqi dunyo bilan oʻzaro munosabatlarning eng muhim omillari maktab boshqaruvining qoʻllab-quvvatlanishi, tashkilotning kuchliligi va aniq maqsadlar, ragʻbatlarni shakllantirish qobiliyati, oʻquvchilar bilan uzluksiz darslar, oʻqituvchilar oʻrtasida pedagogik munozaralar uchun imkoniyat, oʻzgarish jarayonini boshqarish, yangi oʻqitish usulini shakllantirish uchun zarur boʻlgan individual mulohazalar mavjudligidir [1].

Taʼlim sohasida taʼlim oluvchilarda tadbirkorlik qadriyatlarini shakllantirish uchun foydali boʻlgan vositalar, usullar va samarali ingliz tili darslarida oʻquvchilarning tadbirkorlik koʻnikmalarini rivojlantirishda evristik yondashishni keng ommalashtirishga olib keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ingliz tili darslarida oʻquvchilarning tadbirkorlik koʻnikmalarini rivojlantirishning metodik taʼminotini takomillashtirishda [2]:

- oʻqituvchilar guruhlarini ragʻbatlantirish;
- iqtisodiy bilim, tadbirkorlik asoslari va tarbiya fanlariga xos kontekstga mos keladigan tadbirkorlikka yoʻnaltirib oʻqitish usullarini topish;
- takrorlash va jamoalarda oʻrganish imkoniyatiga ega boʻlishlari talab etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OYECD) tadbirkorlik madaniyatini "oʻrganish, qiziquvchanlik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, jamoada ishlash va shaxsiy javobgarlik" kabi fazilatlardan iborat deb taʼriflagan. "amaliy oʻrganish" (learning-by-doing) [3] mexanizmiga yondashish taʼlim oluvchining yangi qiymat yaratishga boʻlgan ijodkorligini oshiradi. Ushbu amaliy oʻrganish doirasida ingliz tili fanini tadbirkorlikka yoʻnaltirib oʻqitishga "effektivlik konsepsiyasi" taʼlim mexanizmiga biznes model,

start-ap, servis, dizayn fikrlash, manfaatli savdo mexanizmlarini misol qilish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Ingliz tili darslarida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlariga misollar

Mexanizmlar	Qiymat yaratish	Tashqi dunyo bilan o'zaro aloqa	Jamoaviy ish	Harakatlar
Tadbirkorlik foydasi	“O'zingiz ko'rib turgan oddiy muammodan boshlang!” Muammoning yechimini topish yoki shunchaki urinish bo'lsa ham zavqli bo'lishiga ishonish	Biror kishini yangi o'zgarishlar bilan tanishtirish “kimni bilasiz”, “nimani bilasiz”	“Venchurga qo'shilishni hohlovchilarga venchur (be'g'araz yordam) nimaligini ayting”	“Trumping (tavakkal) tahlili - dunyoviy g'oyalar muvaffaqiyatga olib kelishi mumkin shunchaki keyingi ishni bajarish orqali”
Biznes model	“Biznes model qanday qilib mantiqiy asosni tavsiflaydi, tashkilot yaratadi, yetkazib beradi va qiymat yaratadi”	“Buyurtmachi nima qiladi?...ko'radi? ... eshitadi? .. o'ylaydi va his etadi? ...aytadi va bajaradi? Xaridorning yo'qotishi? ... daromadi nima?”	Katta auditoriyadagi odamlar guruhlari bilan muhokamalar qilishni boshlashlari mumkin	Har qanday faoliyat uchun boshlang'ich nuqta munozara, uchrashuv yoki seminar bu fikringizni tavsiflash uchun imkon beradigan tushuncha
Start-ap	“Mijozga yo'naltirilgan eng kichik yoki eng murakkab muammo nima?” E'tiborni muammolarga emas, minnatdorchilik bilan hal qilishni talab qiladigan misollarga qaratish	Tashqariga chiqish va mijozlar bilan suhbatlashish “Insonlarda so'rovnoma o'tkazish orqali jamiyatni o'zgartiramiz”	“Umid, hayajon, ilhom kabi iboralar jarayonda muhim ahamiyatga ega”	Muammo yechimi haqidagi farazni sinab ko'rish “So'rov bilimlarni va tasavvurlarni kengaytiradi hamda choralarni ko'rishga undaydi
Servis	“Ishtirok etganlar uchun moddiy va nomoddiy imtiyozlarni yaratish”	Ta'lim oluvchilar uchun aniq, kasbiy, konsultativ tajribalar	“O'qituvchilar, ta'lim oluvchilar va birgalikda ishlaydigan jamoa”	“Fikrlash va faoliyatni bog'lash”
Dizayn fikrlash	Vizual ravishda tasavvur qilish va mavjud imkoniyatlar orqali foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirish	Foydalanuvchilar haqida kuzatuv va surishtiruv ishlari	Tengdoshlari bilan hamkorlik jarayoni	“Fikrlash va amaliy faoliyatli harakatlanish”

Effektivlik konsepsiyasi tadbirkorlik ta'limining uchinchi yondashuviga (through) asoslanib, ingliz tili fanini tadbirkorlikka yo'naltirib o'qitishda foydalanish mumkin. Effektivlik- bu qaror qabul qilishning faol jarayoni va yangi qiymatni yaratishga intilayotgan faol majburiyat sifatida tavsiflanadi, bunda har bir tahlili "Men kimman?",

"Men nimani bilaman?" va "Men kimni bilaman?" kabi savollarga asoslanadi hamda tadbirkorlikka oid amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda inson potensialini ochib berish, ushbu potensial o'zgarishlarni yaratish sifatida ko'rilib, tadbirkorlik harakatlarini amalga oshirish, qadriyatlarini yaratish va ijodkorlik vositalaridan foydalanishga e'tibor qaratiladi [3].

Effektivlik mexanizmida o'qituvchi tadbirkorlik asoslari fani doirasida ta'lim oluvchilar bilan o'zaro muloqotga kirishadi hamda o'quvchilardan muammolarni qanday aniqlash, muammo ta'siri doirasidagi insonlarga qanday yordam berishlari haqida ko'proq ma'lumot olishlari mumkin. Jarayonni boshlashda ular biron bir yechim yaqinida bo'lmasligi kerak, ular faqat muammoga yaqinlashish va ko'proq ma'lumotlarni o'rganishlariga e'tibor qaratishlari kerak. CLIL fikrlash texnologiyasi yakka tarzda fikrlash jarayonini tashkil etish yoki guruhda ishlash samaradorligini oshirish uchun qo'llaniladi. Bu muammoni yechish maqsadiga yo'naltirilgan va o'z fikrlash jarayonini ongli boshqarishga asoslangan texnologiyadir. Dastavval loyihalashtirish masalalarini yechish uchun ishlab chiqilgan.

CLIL fikrlash texnologiyasida muammoni yechishda turli xil fikrlash jarayonini idora etish usullarini taklif etiladi.

Fikrlash tipi - insonning bilimi, tajribasi va iste'dodi bilan bog'liq shaxsiy xususiyatlari va fikrlash rejimi - ongli ravishda maqsadga yo'naltirilgan holda fikrlar jarayonini tashkil etishdan iborat.

CLIL asosidagi fikrlash texnologiyasida turli nuqtai nazarlar kesishuvida fikrning asosiy elementlarini yetti guruhga tizimlash taklif etiladi:

1. Yondashuvlar variantlari: o'rganishdan maqsad, loyiha asosiy kategoriyasi, dastlabki gipoteza, yondashuv (loyiha paradigmasi).

2. Mulohaza variantlari: taxmin qilmoq, baholamoq, solishtirmoq, ekstrapolyatsiya qilmoq, o'zgarishsiz qoldirish, oldindan ko'ra bilmoq.


3. Fikrlash strategiyasi: tanlangan yo'nalishda davom etish, muammo masala doirasini kengaytirish, yo'nalishni o'zgartirish, o'tmish bilan qiyoslash, kelajak bilan qiyoslamok, tafsilotlarni o'rganish, umumlashtirish, ziddiyatlar izlash, to'xtatmoq.

4. Fikrlash taktikasi: riskni va oqibatlarni baholash, fikrni rivojlantirish, o'xshash vaziyatlar bilan solishtirish, tashkil etuvchilarga ajratish, sababni aniqlash, yangicha yondashuv imkoniyatini izlash, variantlarni solishtirish.

5. O'zaro ta'sir va bog'lanishlar: yechimlarni jamlash va saqlash, o'zaro ta'sirlarni aniqlash, subyektivlikni va moslikni tekshirish, ma'lum faktlar bilan qiyoslash.

6. Tushunchalar konstruksiyasi: tadbirkorlik tushunchalarini qo'llash, mavjud vaziyat bilan solishtirish, mumkin bo'lgan vaziyat bilan solishtirish.

7. To'siqlarni bartaraf etish tadbirkorlik strategiyalari sxemasini qo'llashdan iborat.



1-rasm. CLIL asosidagi fikrlash texnologiyasida turli nuqtai nazarlar kesishuvi

Ingliz tili darslarida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda CLIL texnologiyalariga asoslangan evristik usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarda quyidagi tadbirkorlik kompetensiyalari shakllanadi [3]:

- ✓ kompetentlik (tadbirkorlik bilimlari ko'lami kengayadi);
- ✓ kreativlik (uddaburonlik bilan ijodiy masalalarni yechish mahorati shakllanadi);
- ✓ ekspertizaga munosabati (salbiy, passiv, vaqt tanqisligi kabi tadbirkorlik munosabatlar shakllanadi);

- ✓ konformizm (salmoqli ishbilarmonlik fikrlarga moyilligi ortadi);
- ✓ fikrlash konstruktivligi (tadbirkorlikni amalda tadbqiq etish imkoniyati yaratiladi);
- ✓ kollektivizm (tadbirkorlikka xos jamoada tutish etikasi, munozara etikasi shakllanadi);
- ✓ o'ziga tanqidiy munosabat (o'zining kompetentlik darajasini obyektiv baholash, boshqalarning fikrini e'tiborga olish kabi tadbirkorlik ko'nikmalari mustahkamlanadi).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ingliz tili darslarida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari, o'quvchilarning qiymat yaratishning noan'anaviy jarayonida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantiruvchi evristik usullarini ishlab chiqish o'quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligini oshiradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida tadbirkorlikka oid amaliy ko'nikmalarni qiymat yaratishga asoslangan mexanizmlarni qo'llash orqali shakllantirish dolzarb hisoblanadi. O'quvchilarga jamiyat uchun qiymat yaratishni o'rganishiga imkon berilishi ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Mirzakarimova Maxliyoxon Madaminjonovna. "Umumta'lim fanlarini tadbirkorlikka yo'naltirib o'qitish tizimi" Science and Education, vol. 1, no. 4, 2020, pp. 97-103.
2. MIRZAKARIMOVA MAXLIYOXON MADAMINJONOVNA. XORIJIY TILLARNI TADBIRKORLIKKA YO'NALTIRIB O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI. Nova. Pub. 2022, 1-128.
3. Mirzakarimova Maxliyoxon Madaminjonovna. "Zamonaviy sharoitlarda umumta'lim fanlarini tadbirkorlikka yo'naltirib o'qitish tizimi" Science and Education, vol. 1, no. 4, 2020, pp. 216-222.

4. Mirzakarimova MM. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes - Telematique, 2022. 7128-7131 p.

5. Mirzakarimova, M., 2023. EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES. Академические исследования в современной науке, 2(8), pp.92-94.

6. Madaminjonovna, M. M. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.